

**GESTASION PIELONEFRITDA BUYRAKLAR PO'STLOQ QAVATINING
MORFOMETRIK KO'RSATICHLARI****Tojiboev T.****Axmedova M.**

Andijon davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15802048>

Dolzarbli. Gestatsion pielonefrit uchrash darajasi homiladorlik va tug'ilishlar miqdoriga mos ravishda AQSH va Yevropa davlatlarida jami homiladorlarning 2-4%da, Yaponiya, Janubiy Koreya va Hindistonda ushbu ko'rsatkich o'rtacha 2-3%da, MDH davlatlari va Rossiya federatsiyasida o'rtacha 2-10%da, O'zbekiston Respublikasida o'rtacha 10-18%ni tashkil etadi. Tug'ruq va tug'ruqdan keyingi davrda rivojlangan gestatsion pielonefritlar o'rtacha 6-25%ni tashkil etishi muammoni dolzarbligini anglatadi. Homiladorlik va tug'ruqdan keyingi davrda buyrakda yuzaga kelgan asoratlardan o'lim ko'rsatkichi 1000ta homiladorga o'rtacha 1-3%ni tashkil etadi/

Tadqiqot maqsadi va vazifalari: homiladorlik paritetiga qarab gestasion pielonefritda buyraklarning morfometrik ko'rsatkichlari o'zgarishlarini o'rganish.

Tadqiqotning ob'ekti va tekshirish usullari Respublika Patologik anatomiya markazida 2020-2023 yillarda 40 nafar homiladorlikda buyrak patologiyalari bilan vafot etgan ayollar gestatsion pielonefritda buyrak parenxima va mezenxima tuzilmalari morfometrik ko'rsatkichlarini xos jihatlar Hamamatsu (QuPath-0.4.0, NanoZoomer Digital Pathology Image) morfometrik dasturiy ko'rsatkichlari orqali o'rganildi.

Tadqiqot natijalar. Morfometrik tekshirish uchun nazorat guruxi sifatida miokard infarktidan to'satdan vafot etgan bemorlar (n=17) avtopsiyasida buyrak to'qimasi olingan. Tajriba guruxi sifatida, turli reproduktiv yoshdagi ayollar homiladorlik paytida o'tkir buyrak kasalliklaridan vafot etganlar avtopsiyasida buyrak to'qimasi olingan va buyrak to'qimalaridan tayyorlangan materiallar NanoZoomer da skaner qilindi va mikrotasvirlar olindi.

Tadqiqotda gestatsion pielonefritda turli xil shakllarida homiladorlikni turli xil muddati va nechanchi xomilorlikka buyrak to'qimasidagi morfometrik ko'rsatkichlari bo'yicha, quyidagilar aniqlandi. Buyrak ko'ptokchalarining o'rtacha diametri, nazorat guruxida $166,8 \pm 1,1$ mkm ni tashkil etib, ushbu ko'rsatkich, tadqiqot 1-guruxinigi 1-homiladorlikdagi gestatsion pielonefritdagi buyraklarda $209,3 \pm 1,1$ mkmni tashkil etib, 1,25 martaga oshganligini anglatadi. Multipleksli morfometrik tekshirishlarda, buyraklarning yoshga doir zararlanish ko'rsatkichlari bo'yicha, nazorat guruxiga nisbatan, I-homiladorlikda barcha morfofunktsional ko'rsatkichlarni ustunligi, shikastlanishlarni yuqoriligi bilan davom etib, nazorat guruxiga nisbatan o'rtacha, barcha buyrak komponentlarini 1,35 martagacha kattalashganligi, qon tomirlarni kengayishi va boshqa ko'rsatkichlarni ustunligi jihatidan shikastlanishni eng yuqoriligi bilan namoyon bo'ldi. II-homiladorlikda bu kabi ko'rsatkichlar o'rtacha, 1,2 martagacha nazorat guruxidan ustun bo'lib, tezkor morfologik moslanish mexanizmlarni sustligi, tomir komponentlarini yoshga doir davom reaksiyasini pasayishi bilan izoxlandi. II-homiladorlikda buyraklarni shikastlanish ko'rsatkich nazorat guruxi bilan taqqoslaganda 10-15% gacha o'zgarishi va farqlar tavofuti bo'ldi.

Xulosalar: Bu o'zgarishlar yuqorida morfologik belgilarida keltirilgan, yoshga doir buyrak ko'ptokchalari ajoyib to'rida qon tomirlarning javob reaksiyasi sifatida filtratsiya jarayonini

oshishi, tomirlarning keskin kengayishi va koptokchalarni xajman kattalashi aynan, 1-homiladorlikda yuzaga kelgan gestation pielonefritda yuqori ko'rsatichlarda ekanligini tasdiqlaydi.

REFERENCES

1. Sultonov M. M., Mamajonov A. M. (2017). *Akusherlik va ginekologiyada infeksiyon asoratlar: klinik holatlar va ularning oqibatlari*. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti. – Kitobda homiladorlik paytidagi pielonefrit, u bilan bog'liq buyrak shikastlanishlari va klinik-morfologik xususiyatlar yoritilgan.
2. Abdullayev A. M., Soliyeva M. N. (2020). *Buyrak kasalliklari: klinik, morfologik va immunogistokimyoviy yondashuvlar*. Toshkent: Ibn Sino nomidagi nashriyot. – Ushbu manbada pielonefritda Bcl-2, P53 kabi markerlarning ifodalanishi va morfometrik o'zgarishlar haqida ma'lumotlar mavjud.
3. Қахҳоров Қ.Қ., Шарипова Г.Г. (2021). *Ҳомиладорликда пиелонефрит ва унинг морфологияси*. – “Тиббиётда янги кун” журналі, №4, 56-60-бетлар. – O'zbekiston homilador ayollarida pielonefritning morfologik ko'rinishlari tahlil qilingan.
4. Cotran R. S., Kumar V., Robbins S. L. (2020). *Robbins and Cotran Pathologic Basis of Disease*, 10-nashr. Elsevier. – Klassik patologiya manbasi bo'lib, unda buyrakdagi morfometrik o'zgarishlar va gestatsion pielonefrit mexanizmlari keng ko'lamda tahlil qilingan.
5. Jurayev A. T., Yusupova D. K. (2019). *Pielonefritning kechishida morfometrik ko'rsatkichlarning diagnostik ahamiyati*. – “Ilm va taraqqiyot” jurnali, №2, 101–105. – Morfometrik usullar orqali pielonefritning turli shakllari va ularning tahlil natijalari bo'yicha maqola.